



SALBIY AXBOROT XURUJLARI TUSHUNCHASI, TURLARI VA ULARNING O'QUVCHILAR ONGIGA TA'SIRI

Ravshanova Maftuna Akbarovna

NDU 2-kurs magistranti

maftunaravshanova523@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot xuruji tushunchasi, turlari va ularning bugungi kunda o'quvchilar ongiga ta'siri haqida bayon etilgan. Axborot ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va madaniy taraqqiyotning muhim omilidir. Uning jamiyat hayotidagi ahamiyati kundan–kunga ortib, ma'lumotlar bilan ishlash usullari o'zgarishi va yangi axborot texnologiyalarni qo'llash sohalarining kengayishi kuzatilmoqda. Axborot hajmining borgan sari ko'payishi XX asrning ikkinchi yarmidan yaqqol namoyon bo'la bordi. O'tgan asrning 70 yillarida axborot hajmi har 5-7 yilda ikki barobarga ortgan bo'lsa, 80-yillarda bunday o'sish har 20 oyda, 90-yillarda esa har yili kuzatilgan. Axborot hajmining bu qadar ortib ketishi insonning axborotni butunligicha qabul qilish imkonini cheklab qo'yayotganini ta'kidlash lozim.*

Kalit so'zlar: *axborot xuruji, axborot turlari, globallashuv, kiberxavsizlik, informatsion-psixologik xuruj, inson, shaxs, yoshlar, milliy g'urur, milliy ruh*

Bugungi zamonimizda globallashuv jadal davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o'zgarib borayotgan bir holatda dunyodagi harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf miqdori hamda tahdidlar ko'lami kengayib borayotganligi, geosiyosiy oppozitsiyaning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib xalq etishga bo'lgan yondashuvning ustunlik qilishi, shu jumladan ommaviy qirg'in qurollarini qo'llash ehtimoli oshib borayotganligi, harbiylashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashuvi davom etayotganligi, axborot va kibermakonda o'zaro kurash kuchayotganligi bilan tavsiflanmoqda. Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, axborot davlat va jamiyat rivojlanishining muhim omilidir. Jamiyat axborotsiz yashay olmaydi. Dunyo yagona axborot makoniga aylangan bir pallada undan holi bo'lish ham mumkin emas. Mamlakatimizda ham jamiyatni axborotlashtirish qonun bilan belgilab qo'yilgan. Ma'lumki, axborot insonning doimiy ehtiyojiga aylangan. Har kuni o'nlab telekanallar, radioeshittirishlar, gazetalar va internet orqali qancha axborotlarga ega bo'lishidan qat'iy nazar yana axborot kutib yashaydi. Bugun keng jamoatchilikka, ayniqsa talabchan yoshlarga qanday axborotlar zarurligini izohlashga hojat yo'q. Ular mamlakatimizda va jahonda yuz berayotgan eng muhim voqea-hodisalar haqida tezkor va haqqoniy axborotga ega bo'lib borishni istaydilar. Ma'lumki, bunday jadal sur'atlarda rivojlanayotgan jamiyatda albatta o'z o'rnida axborot xurujlari, salbiy yoki yolg'on xabarlaning tarqalishi va ularning jamiyat notinchligini buzishi hech gap emas.



Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining axborot xuruji kuchayib, manipulatsion jarayonlarning keng yoyilishiga sabab bo'lmoqda. Bu kabi tahdidlardan o'z vaqtida ogoh bo'lib, unga qarshi maxsus immunitetni hosil qilish davr talabi. Qayerda ma'naviy bo'shliq paydo bo'lsa, chetda poylab yurgan kimsalar buzg'unchi g'oyalarni tiqishtirishga va yoshlar ongini zaharlashga harakat qiladilar. "Bunday kuchlarning g'arazli munosabati avvalo boy va qadimiy ma'naviyatimizga qarshi qaratilgani, ular xalqimizni ana shu bebaho boylikdan judo qilish uchun har xil usul va vositalar bilan zo'r berib urinayotgani barchamizga tashvishlantirmasdan qolmaydi, albatta. Nega deganda, insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi"². Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan urush-talofat, buzg'unchilik, inqilobiy harakatlar va terrorchilikka axborot xuruji katta ta'sir ko'rsatmoqda³.

Axborotlar inson ongi va tafakkuriga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi, umumiy insoniyat hayotini va taqdirini u yoki bu tomonga o'zgartirib yuboruvchi, goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga, eng kuchli qurolga aylandi. Chunki, "Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi", - degan fikr bugungi kunda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilmoqda. Shaxsning axborotlar bilan ta'minlanganlik darajasi bugungi kunda katta ahamiyat kasb etmoqdaki, ular insonning o'z-o'zini va ma'lum axborot makonidagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy, axloqiy nufuzini belgilashda asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Shularni inobatga olib zamondan orqada qolmagan holda qaysi axborotlarni qay tarzda qabul qilish insonning o'z shaxsiy filtrga bog'liq bo'lib qoldi. Insonning axborot sohasidagi xavfsizligini ta'minlash uchun fuqarolarning axborot madaniyatini yuksaltirish, ya'ni ularga axborotni saralash va undan ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foydalanish esa insonning ong darajasi bilan bog'liq.⁴

Informatsion-psixologik xurujlar eng avvalo, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali boy madaniyatimiz va ma'naviy qadriyatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan mafkura va buzg'unchi g'oyalarni yoshlarning ongi va tafakkuriga singdirishga qaratilgan tajovuzkorlikning mafkuraviy shaklda namoyon bo'lishidir. Informatsion-psixologik xurujlar – bu shaxs va ijtimoiy guruhning ongiga ruhiy ta'sir ko'rsatishning bir turi bo'lib, asosan oldindan puxta tayyorlangan axborotdan foydalanish hamda axborot ta'sir ko'rsatishning turli shakllari yordamida shaxs va ijtimoiy guruhning ongini ta'sir ko'rsatayotgan kuchlar tomoniga ag'darish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatdir.

² Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008 й. 11-бет.

³ Qaxharova, M., & Absattorov, B. M. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. The Light of Islam, 2020(1), 110-115.

⁴ Sapayevich J. X. OPPORTUNITIES OF CENTRAL ASIAN STATES IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL GEOPOLITICAL RELATIONS //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – T. 9. – C. 129-131.



Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa o'rnida aytish mumkinki, yoshlarimizda axborot iste'moli madaniyati shakllangan bo'lsa milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar va ma'lumotlarni baholash paytida turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolmaydi, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirgan bo'lamiz. Tobora kuchayib borayotgan globallashuv jarayonida axborot xurujlari va kibertahdidlardan himoyalanih, o'z navbatida, ularga qarshi kurashish uchun har bir kishi hushyor va ogoh bo'lishi, axborotni tahlil qila bilishi lozimligini davrning o'zi talab etmoqda. Shunday ekan, ogohlik kundalik shiorimizga aylanishi darkor.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O'RQ-764-son "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 14-yanvar kunidagi "Qurolli Kuchlar tashkil topganligining 27 yilligiga bag'ishlarga bayram tabrigi".
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. // O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1.-T.: O'zbekiston.-1996.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008 й. 11-бет.
5. Qaxharova, M., & Absattorov, B. M. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. The Light of Islam, 2020(1), 110-115.
6. Sapayevich J. X. OPPORTUNITIES OF CENTRAL ASIAN STATES IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL GEOPOLITICAL RELATIONS //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – T. 9. – C. 129-131.
7. Safojevich, J. X., & Farrukh, N. (2021). The Relationship Between the West and the Islamic World in International Geopolitical Processes. Middle European Scientific Bulletin, 17, 280-283.
8. Жуманиязов, Х. С., & Нигманова, У. Б. (2019). Трудовой подвиг народов Узбекистана в годы Второй мировой войны. Эшелоны идут на восток. Эвакуация в Узбекистан в годы Великой Отечественной войны, 145.
9. Qaxxorova, M. (2022). ЖАДИДЧИЛИК ТАЪЛИМОТИДА ЖАМИЯТ МУХИТИНИ АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАШТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Теория и практика современной науки.
10. Qaxxorova, M. (2022). Ma'naviy tarbiya strategiyasi. Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа.
11. Dusboyev A.T. Axborot-psixologik xavfsizlik asoslari. CHOTQMBU.: 2019. 92 b.
12. <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/download/1025/991/1019>
13. <https://oyina.uz/uz/article/127>
14. <https://gisconf.com/index.php/TESD/article/download/1178/1179/3500>